

An'anaviy O'zbekiston-Rossiya ta'lim forumida TIQXMMI Buxoro filiali ham ishtirok etdi va istiqbolli memorandumlarni imzoladi

Qadimdan ilmu irfon maskani bo'lgan Buxoroi sharifda O'zbekiston va Rossiya oliy ta'lim muassasalari rektorlarining uchinchi mintaqalararo konferensiyasi bo'lib o'tdi. Xalqaro forumni o'tkazishdan asosiy maqsad O'zbekiston va Rossiya o'rtasida zamonaviy yo'nalish va mutaxassisliklar bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash hamda ilmiy tadqiqot sohasida o'zaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishdan iborat edi.



Mintaqalararo anjumanda ikki mamlakatning yuqori martabali davlat hokimiyati organlari vakillari hamda 80 dan ortiq nufuzli oliy ta'lim muassasasi rektorlari ishtirok etdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi Abdujabbor Abduvoitov, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Xorijiy mamlakatlar bilan xududlararo va madaniy aloqalar bo'yicha boshqarma boshlig'ining o'rinbosari Anton Ribakov, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri Abduqodir Toshqulov, Rossiya Federatsiyasi Fan va oliy ta'lim vazirining o'rinbosari Dmitriy Afanasyev kirish so'zlari bilan anjuman qatnashchilariga murojaat qildilar. Anjuman dasturidan, shuningdek, ish beruvchilar ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy-pedagogik xodimlar va iqtisodiyotning real sektoridagi korxonalar rahbarlari uchun malaka oshirish va qo'shimcha kasb ta'limi dasturlarini tashkil etish, ikki davlat oliy ta'lim muassasalarining zamonaviy sharoitlardagi hamkorligining innovatsion mexanizmlarini ishlab chiqish kabi keng qamrovli mavzular o'rin oldi.



Anjuman yakunida mazkur yo'nalishlar bo'yicha ikki tomonlama hamkorlik memorandumlari imzolandi. Konferensiyada TIQXMMI Buxoro filiali nomidan filial direktori Shavkat Jaxonovich Imomov ishtirok etdi. Konferensiya davomida filialning o'ziga xos targ'iboti ham tashkil etildi. TIQXMMI Buxoro filiali Rossiya Federatsiyasining bir qator qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalari bilan memorandumlar imzoladi va bir qator mutassaddi vakillar bilan davomli va birgalikdagi o'quv dasturlarini amalga oshirishga kelishib olindi.



TIQXMMI Buxoro filiali matbuot xizmati
TIQXMMI matbuot xizmati